

**AKMALUDDIN MUHAMMAD BOBARTIY HAYOTI VA
FAOLIYATI**

Rahmonova Muslima Murodillo qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

+998909607261 muslimarahmonova371@gmail.com

Ilmiy rahbar: Palvanov O'ktam Bazarbayevich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish

ICESCO" kafedrasi dosenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola islom ilmlarining bir necha sohalarida beqiyos hissa qo'shgan olim Akmaluddin Muhammad Bobartiyning hayoti va faoligati haqidagi ma'lumotlar joy olgan bo'lib, uning ustozlari, shogirdlari hamda ilm yo'lida kechgan safarlari batafsil bayon etib o'tilgan.

Tayanch iboralar: Akmaluddin, Abu Abdulloh, "Bobart" qishlog'i, ustozlari, shogirdlari, Shayxuniyya madrasasi.

Hanafiy mazhabi jahonda keng tarqalgan. Bu mazhabning taraqqiyotida ko'plab zabardast olimlar o'z hissalarini qo'shishgan. Shunday olimlardan biri Akmaluddin Bobartiy bo'lib, u VIII/XIV asrda faoliyat yuritgan. Akmaluddin Bobartiy 710/1310-yillarda tug'ilgan¹. Shuningdek, uning 714/1314-yilda tug'ilganligi haqida ham ma'lumot mavjud². Uning to'liq ismi Akmaluddin Abu Abdulloh ibn Mahmud ibn Ahmad al-Bobartiy ar-Rumiy al-Hanafiy bo'lib, u usul al-fiqh, furu' al-fiqh, hadis, kalom kabi sohalarida muhaqqiq olimdir.

Imom Bobartiyning hayoti haqida ma'lumot berganlarning ba'zisi olimning otasi ismi va bobosining ismi borasida birlamni manbalarga xilof tarzida shunday

¹ Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-Imam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 9.

² Al-Laknaviy. Favaid al-bahiyya. – Bayrut: Lubnan, 1998. – B. 320-321.

bergan: U “Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad”. Lekin manbalardagi yuqoridagi shakli to‘g‘ri: Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad ar-Rumiy al-Bobartiy al-Hanafiy³.

Xossatan, Imom Bobartiyning ilmga bo‘lgan katta qiziqish hamda ishtiyoqi sababli unga otasi va bobosi tomonidan “Kamoluddin”, “Sirojuddin”, “Jamoluddin” kabi laqablar berilgan. Bu esa, uning zehni yuqoriligiga isbotdir. Bobartiyning ismiga “Akmaluddin” laqabining qo‘shib aytilishi ham, uning ilmdagi martabasi yuqori ekanligiga dalolatdir⁴. Imom Bobartiyning laqibi “Akmaluddin”⁵ va kunyasi esa “Abu Abdulloh” bo‘lgan.

Allomaga “Bobartiy” nisbasi berilishi borasida manbalarda ikki xil ma’lumot mavjud:

Birinchi: Bog‘dodning Dujayl shahri atrofidagi “Bobart” qishlog‘i nomidan olingan;

Ikkinchi: Turkiyadagi “Bobart” degan joy mavjud bo‘lib, u Rum diyoriga tegishli bo‘lgan. Shuningdek, az-Zirikliy ham mana shu ikkinchi fikrni ma’qullagan.

Imom Bobartiy yoshligidan ilm-fanga qiziqib, avvalo, o‘z diyoridagi olimlardan ilm-fan asoslarini egallagan. U aqida va fiqhni Muhammad ibn Muhamammad al-Kokiydan o‘rgangan. So‘ng, Halabga safar qilgan. Qozi Nosiruddin ibn al-Adim uni “Sadiyya” madrasasiga jo‘natgan. U o‘sha yerda bir muddat istiqomat qilib, madrasa olimlaridan saboq olgan.

U 740/1339-yildan keyin Qohiraga safar qilib, Abu Hayyon al-Andalusiyan hamda “Muxtasar ibn al-Hojib” asarining shorihi Abu al-Sano Shamsuddin al-Isfahoniydan ham saboq olgan⁶.

Imom Bobartiy go‘zal qobiliyatlar, teran aql va kuchli iroda sohibi, qat’iyati buyuk, mahobatli, sersavlat, pokiza, fazilatli inson edi. Akmaluddin Bobartiyga bir necha marotaba qozilik lavozimi taklif qilinishiga qaramay, u bu lavozimni rad

³ Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Ad-duror al-kamina. – Bayrut: Dor al-jayl, 1993. – B. 250.

⁴ Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh at-Talxis /Tahqiq muallifi: Doktor Muhammad Mustafu Ramazon Sofiyh. – Tripoli: Jamahiriyyatul arobiyya al-labiyya ash-sha’biyya al-istirokiyya. 1983. – B. 27.

⁵ Akmaluddin (arabcha) – iymoni komil bo‘lgan banda. (Muslima.uz/index.php/uz/mening-oilam/farzand/ismlar/288-a. Murojaat sanasi: 26.01.2025)

⁶ Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-mIam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 9.

etgan. Uning eshigi oldida mansabdorlar qoim bo'lib, olimning biror yumushi bo'lsa-yu, uning ehtiyojlarini qondirishga shoshilishar va sha'y turishardi. Shuningdek, Sulton az-Zohir Barquqning ham unga bo'lgan hurmati beqiyos edi⁷.

Imom Bobartiyning ustozlari va shayxlari ko'p sonli va turli sohalarda bo'lganligi uning ko'plab ilmlarni o'rganganligiga dalolat qiladi. Bu esa, olimning ilmiy asarlarida o'z isbotini topgan. Jumladan, muarrixlar Bobartiy ko'plab ustozlardan tahsil olganligini aytishadi. Shuningdek, Hofiz Shamsuddin Dovudiy "Tabaqot al-mufasssirin" asarida u haqida shunday deydi: "U ilmni Abu Hayyon Al-Isfahoniydan olgan. Hadisni Dalusiy va Ibn Abulhadiydan eshitgan. Umarolarning huzurida ham juda aziz edi. Hattoki, Sulton az-Zohir Barquq Imom Bobartiy ulov minib kelsalar u zot bilan suhbatlashar va xonaqohga kirib ketgunlaricha kutib turar edi"⁸.

Imom Bobartiyning ilmga intilishi, ishtiyoqi va shuningdek, Halabga, so'ngra Qohiraga borib, u yerda qo'nim topishi – uning ilk tarbiya davrida ilmiy muhitda ulg'ayganligiga, ilm olish va izlanishdagi qiyinchiliklarga qaramay bilimlarni puxta egallashga mehr qo'yganligiga dalolat qiladi.

Imom Bobartiyning mashhur ustozlaridan quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Shamsuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulhadiy ibn Abdulhamid ibn Abdulhadiy ibn Yusuf ibn Muhammad ibn al-Qudoma Maqdisiy al-Hanbaliy (vaf. 744/1343)⁹. 705/1305-yilda tug'ilgan. U "Tanqih at-tahqiq", "Al-masodir al-mankiy", "Tabaqot ulamo al-hadis", "Al-muharror" kabi kitoblarning muallifi hisoblanadi. 744/1343-yilda vafot etgan¹⁰.

2. Asiruddin Abu Hayyon Muhammad ibn Yusuf ibn Ali ibn Yusuf ibn Hayyon al-G'ornatiy al-Andalusiy (vaf. 745/1344). U mufasssir, nahv ilmi olimi bo'lib, 654/1256-yil G'ornatoda tug'ilgan. Alloma, avvalo, o'zi tug'ilgan diyorda qiroat, nahv hamda lug'at ilmlarini o'rgangan. U 677/1278-yil Mag'rib (Marokash), Misr va Shomga safar qilgan. Abu Hayyon al-Andalusiy 645/1247-yilda vafot etgan.

⁷ Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Ad-duror al-kamina. – Bayrut: Dor al-jiyl, 1993. – B. 250.

⁸ Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-imam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 10.

⁹ As-Sofdiy. Al-vafa bil-vifyat. – Bayrut: Lubnan, 2000. – B. 113.

¹⁰ Akmaluddin Bobartiy. Sharh at-talhis. – Liviya: Tarois, 1983. – B. 20

3. Shamsuddin Abu as-Sano Mahmud ibn Abdurrohman ibn Ahmad al-Isfahoniy (vaf. 749/1348). U usul al-fiqh sohasida mashhur olim bo'lib, 674/1274-yilda Isfahonda tavallud topgan. Avval, Damashqqa, so'ngra Qohiraga safar qilgan. Imom al-Isfahoniy shunday deydi: "U fikr yuritishda mohir, e'tiqodi mustahkam, fiqh ilmini yaxshi biluvchi, solih kishilarni sevuvchi, ilmda rag'bat kuchli bo'lgan kishilardan edi". Shamsuddin al-Isfahoniy 749/1348-yilda vafot etgan¹¹.

4. Qovamuddin Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad as-Sinjariy al-Kakiy (vaf. 749/1371). U faqih olim bo'lib, Abdulaziz al-Buxoriyga "Hidoya"ni o'qib bergan. Hasomuddin as-Sig'naqiyan ham ilm olgan. "Mi'roj ad-diroya sharh al-Hidaya" kitobining muallifi hisoblanadi. 749/1348-yilda Qohirada vafot etgan¹².

5. Sadruddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Robia Sulaymon ad-Dalosiyy al-Misriy (vaf. 756/1355). 670-1271-yillardan keyin dunyoga kelgan. Ibn Hatib al-Mazzo va Muhammad ibn Abdulxoliqdan ilm olgan. 756/1355-yil vafot etgan¹³.

Imom Bobartiy ko'plab talabalarga ham dars berib, shogirdlar chiqargan. Ular ichida mashhurlaridan quyidagilarni keltorish mumkin:

1. Badruddin Muhammad ibn Xos at-Turkiy (vaf. 813/1420).

2. Sayyidushsharif Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Ali al-Jurjoniyy (vaf. 826/1423).

3. Badruddin Mahmud ibn Isroil ibn Abdulaziz – u Ibn Qozi Simovna nomi bilan mashhur bo'lgan. (vaf. 823/1420).

4. Sirojuddin Abu Hafs Amr ibn Ali ibn Faris al-Misriy – "Qoriul hidaya" nomi bilan tanilgan (vaf. 829/1426).

5. Shamsuddin Muhammad ibn Hamza ibn Muhammad ibn Muhammad ar-Rumiyy al-Fanariyy (vaf. 834/1430)¹⁴.

Shayx Dovudiyning "Tabaqot al-mufasssirin" asarida ta'kidlanganidek, Shayxuniyya madrasasida Akmaluddin Bobartiy yuksak e'tirof etilgan. Bu, shubhasiz, murakkab ilmiy jarayondir. U ilm-fanni yoyishni o'z oldiga maqsad qilib

¹¹ Ahmad ibn Ali Ibn Hajar al-Asqaloniyy. Ad-duror al-kamina. – Bayrut: Dar al-jayl, 1972. – J. IV. – B. 327.

¹² Al-Laknaviyy. Favaid al-bahiyya. – Bayrut: Lubnan, 1998. – B. 186.

¹³ Ahmad ibn Ali Ibn Hajar al-Asqaloniyy. Ad-duror al-kamina. – Bayrut: Dar al-jayl, 1972. – J. III. – B. 318.

¹⁴ Al-Laknaviyy. Favaid al-bahiyya. – Bayrut: Lubnan, 1998. – B. 274.

qo'ygan ilmiy maktablardan biri – Shayxuniyya madrasasida rahbarlik qilgan. Shubhasiz, bu lavozimni faqat o'sha paytda katta bilimga ega bo'lgan insongina egallashi mumkin edi. Shuningdek, Imom Bobartiy ushbu ilmiy muassasaga rahbar bo'lguniga qadar talabalarga ilm berib mudarrislik qilgan. U Shayxuniyya maktabida faoliyat yuritishi davomida ko'plab olimlar bilan uchrashgan. Bu esa, olimning ilmiy faoliyati yanada yuksalishida muhim bir omil deya e'tiborga olinadi¹⁵.

Imom Bobartiy insonlar qalbida saqlanib qoldi, garchi ba'zi narsalar kitobga bitilish yoki bitilmasligidan qat'iy nazar, u Shayxuniyya maktabida raislik qilganida ana shunday ilmiy ta'sir ko'rsata oldi desa, mubolag'a bo'lmaydi.

Akmaluddin Muhammad Bobartiy Ramazon oyining o'n to'qqizinchi sanasi juma kuni hijriy 786-yili (milodiy 1384-yil) Misrda vafot etgan. U Shayxuniyya xonaqohiga dafn qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Akmaluddin Bobartiy islom ta'limotida o'ziga xos o'rin tutgan olimlardan biri bo'lib, u aqida, usul al-fiqh, furu' al-fiqh va hadis kabi sohalarning rivojiga o'z asarlari bilan katta hissa qo'shgan. Uning ilmiy faoliyati nafaqat nazariy bilimlar, balki ilm-fan rivojida amaliy jihatlarni ham o'z ichiga olgan. Bu, o'z navbatida, talabalarga va keyingi avlod olimlariga islom ta'limotini chuqurroq tushunishga imkon yaratdi. Olimning asrlarida islom aqidasiining asosiy tamoyillari aniq va ravshan bayon etilgan bo'lib, bu ularni keng auditoriyaga yetkazishda muhim rol o'ynagan. Uning ilmiy faoliyati va ta'limotlari islom aqidasiini zamonaviy muammolar bilan bog'lab, yosh avlodga sof e'tiqodni shakllantirishda o'rni beqiyosdir. Imom Bobartiyniing hayoti va faoliyatini o'rganish davomida olimning ilmga bo'lgan rag'bat va ishtiyoqi, o'z davrining bir necha olimlaridan ilm olib, ilm ulashganligidan hamda turli sohalarda o'z hissasini qo'shganligidan uning ilmga nisbatan naqadar kuchli muhabbat egasi ekanligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI:

¹⁵ Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-Imam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 18.

1. Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-Imam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – 155 b.
2. Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh at-Talxis/Tahqiq muallifi: Doktor Muhammad Mustafo Ramazon Sofiyh. – Tripoli: Jamahiriyyatul arobiyya al-labiyya ash-sha'biyya al-istirokiyya, 1983. – 244 b.
3. Ibn Hajar al-Asqaloniy. Ad-duror al-kamina. – Bayrut: Dar al-jiyil, 1972. – J. IV. – 327 b.
4. Akmaluddin Bobartiy. Sharh at-talhis. – Liviya: Tarois, 1983. – 791 b.
5. Al-Laknaviy. Favaid al-bahiyya. – Bayrut: Lubnan, 1998. – 606 b.
6. As-Sofdiy. Al-vafa bil-vifyat. – Bayrut: Lubnan, 2000. – 284 b.